**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"
_______ A.K.Kirgizbayev
2023 yil "28" 03

Ro'yxatga olindi: № BD-60112100-1.07
2023 yil "28" 03

# MA'NAVIY TARBIYANING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi | 100 000 – ta'lim |
| Ta'lim sohasi: | 110 000 – ta'lim |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60112100 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi |

**Toshkent 2023**

Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi<br>MTTNA106 | | O‘quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>1 | ECTS - Kreditlar<br>6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>5 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari | | 74 | 106 | 180 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – Milliy-ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari, uning xalqimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritish. Ma’naviy tarbiyaning mazmun mohiyati, uning tarixiy-nazariy asoslari, milliy-ma’naviy tarbiya takomilining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy omillari haqida bilim berish orqali talaba yoshlarda ma’naviy fazilatlarni tarbiyalab borish.

**Fanning asosiy vazifalari**

-ma’naviy tarbiyaning tarixiy nazariy asoslari mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalarini tahlil etish;

-ma’naviy tarbiyaning tarixiy nazariy asoslarining mohiyati, tarkibi, umumiy qonuniyatlarini ochib berish;

-milliy ma’naviy tarbiya takomilining asosiy mohiyatini ochib berish;

- milliy qadriyatlarimizning mohiyati asosida ma’naviy tarbiyaning tarixiy nazariy asoslari mohiyatini ochib berish;

-milliy-tarbiyaning nazariy asoslari mohiyatida talaba-yoshlarda ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni, mafkuraviy profilaktika ishlarni mustahkamlash borasidagi vazifalarni olib borish;

- milliy-ma’naviy tarbiya takomilining iqtisodiy, madaniy, huquqiy omillari haqida bilim berish orqali talaba yoshlarda ma’naviy fazilatlarni tarbiyalab borish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I – MODUL. Ma’naviy tarbiyaning tarixiy nazariy asoslari fanining mohiyati va jamiyat hayotida namoyon bo‘lish sohalari**

**1-mavzu: “Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” kursining maqsad va vazifalari**

Ma’naviy tarbiya tushunchasi va mohiyati. Shaxs va jamiyat takomilida ma’naviy tarbiyaga ehtiyoj. “Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” kursining predmeti, maqsad va vazifalari. O‘quv kursining ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni.

**2-mavzu: Ma’naviy tarbiya to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar, qarashlar va ta’limotlar**

Ibtidoiy jamiyatda dastlabki ilk tarbiyaviy qarashlarning yuzaga kelishi. Qadimgi Sharq manbalarida ma’naviy tarbiya masalasi. Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi “Avesto”da tarbiyaga oid qarashlarning ifodalanishi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, ularda ma’naviy tarbiyaga doir g‘oyalarning aks etishi: dostonlar, laparlar, ertaklar, matallar, qo‘shiqlar.

Markaziy Osiyoda dostonchilik an’anasining shakllanishi va uning bugungi kundagi ahamiyati, ularda ma’naviy tarbiyaga o‘ziga xos yondashuvlar. Bugungi kunda iste’molda bo‘lgan tarbiyaga oid tushunchalarning qadimgi manbalardagi talqini. Ma’naviy tarbiya to‘g‘risidagi ilk ta’limotlar, g‘oyalar va qarashlarning bugungi tarbiya jarayonlaridagi o‘rni.

**3-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ma’naviy tarbiya masalalari**

Islomga qadar Markaziy Osiyoda ijtimoiy-ma’naviy muhit. Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va ijtimoiy-ma’naviy tarbiyadagi o‘zgarishlar. Ma’naviy tarbiya takomilida islom dini manbalarining o‘rni: Buxoriy, Termiziy, Dorimiy.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud az Zamaxshariylarning tarbiyaga oid qarashlari. Axloqiy didaktik asarlar va ma’naviy tarbiya haqidagi ta’limotlar rivoji: “Qutadg‘u bilig”, “Qobusnoma”, “Devonu lug‘atit turk”, “Hibatul haqoyiq”, “Qissasi Rabg‘uziy”. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan ma’naviy tarbiyaga oid qarashlarning bugungi yosh avlod tarbiyasiga ta’siri.

**4-mavzu: Markaziy Osiyoda tasavvuf, uning tarbiyaviy jihatlari**

Tasavvufning yuzaga kelish sabablari va asosiy g‘oyalari. Markaziy Osiyoda tasavvuf. Tasavvuf tariqati namoyandalari, ularning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari.

Ahmad Yassaviy ta’limotida tarbiyaviy qarashlar. Kubroviya tariqatining tarbiyaviy mohiyati. “Dil ba yoru, dast ba kor” g‘oyasining ma’naviy tarbiya rivojida tutgan o‘rni.

**5-mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat, ta’lim-tarbiya masalalari**

Temur va temuriylar davrida shaxs tarbiyasi. Sohibqironning tarbiyaga oid shaxsiy yondashuvi. “Temur tuzuklari”, uning tarbiyaviy mohiyati.

Temuriyzodalar hukmronligi davrida tarbiyaga munosabat. Mirzo Ulug‘bekning tarbiyaga oid qarashlari. Temuriy malikalar, ularning shu davr ijtimoiy tarbiyasida tutgan o‘rni (Saroymulkxonim, Gavharshodbegim va hk.).

Сканировано с CamScanner

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati, ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.

**6-mavzu: Alisher Navoiy shaxsiyati va uning ilmiy-badiiy merosida tarbiya masalasining ustuvorligi**

Alisher Navoiy - komillik timsoli. Alisher Navoiy ijodi va faoliyatida tarbiyaga e'tibor. "Shoirlarning sultoni" madh etgan insoniy fazilatlar.

Xamsanavislik va tarbiya. "Mahbub ul qulub" – tarbiya mezoni. Alisher Navoiy ilmiy-badiiy merosining bugungi yosh avlod tarbiyasiga ta'siri.

**7-mavzu: Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar merosida tarbiyaga oid qarashlar**

Zahiriddin Muhammad Bobur, uning ma'naviy-ma'rifiy siyosati. Bobur ijodida gumanistik g'oyalarning yoritilishi. "Boburnoma", uning tarbiyaviy ahamiyati.

Boburiy shaxzodalarning millatlararo totuvlik, tolerantlikni ta'minlashda tutgan o'rni. Boburiy malikalarning sulola farzandlari tarbiyasidagi o'rni. Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar merosining o'rganilishi.

**8-mavzu: Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning tarbiyaga ta'siri**

Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhit va umuminsoniy g'oyalarning shakllanishi. Xiva xonligida madaniy-ma'naviy uyg'onish: Maxtumquli, Munis, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy.

Buxoro amirligida ma'rifatparvarlik g'oyalarining shakllanishi: Ahmad Donish, Shamsiddin Shohin, Mirzo Sodiq Munshiy. Qo'qon xonligi ijtimoiy-ma'naviy muhiti: Dilshod Otin, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin.

**9-mavzu. Turkistonda jadidchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari**

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishi, rivojlanishi va asosiy g'oyalari. Jadidchilik. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Padarkush" dramasi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi.

"O'tgan kunlar" romani, uning tarbiyaviy ahamiyati. "Kecha va kunduz" – o'tmishdan saboq beruvchi asar. Yosh avlod tarbiyasida jadidchilik harakati namoyandalari g'oyalarining o'rni.

**10-mavzu. Mustabid tuzum davri o'zbek ziyolilari asarlarida milliy-ma'naviy tarbiya masalalari**

Mustabid tuzum davrida ma'naviy-ma'rifiy siyosat va uning milliy ma'naviy tarbiyaga zidligi. Mustabid tuzum davri o'zbek ziyolilari asarlarida milliy-ma'naviy tarbiya an'analarini asrash uchun kurash g'oyasi.

Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad asarlarida milliy-ma'naviy tarbiyaga botiniy yondashuv. Hamid Olimjon, Zulfiya, Oybek, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov asarlarining yosh avlod ma'naviy qiyofasini shakllanishidagi o'rni.

**11-mavzu. O'zbekiston mustaqilligi va ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv**

Mustaqillik va ozod shaxs, erkin fuqaro tarbiyasining asosiy jihatlari. O'zbekistonda milliy g'oya va milliy ma'naviy tiklanish konsepsiyalarining qabul qilinishi. Davlat ramzlari, ularning yoshlarda milliy g'ururni shakllantirishdagi o'rni.

Mustaqillik in'omlari: milliy bayramlar, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarning tiklanishi. Mustaqillik davri ijodkorlari asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya targ'iboti (Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Yusuf). Bugungi yosh avlod ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ajdodlar o'gitining ahamiyati.

**12-mavzu: Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekiston: yangilanish va modernizatsiya yo'lida. O'zbekistonda tub islohotlarning amalga oshirilishi, davlat boshqaruvini tubdan yangilash va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga qaratilgan o'zgarishlar. Mamlakatimizda xorijda ta'lim olgan malakali mutaxassis va davlat xizmatchilarining ijtimoiy mavqeini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.

Yoshlarda yangilanayotgan O'zbekiston taqdiriga daxldorlik hissini tarbiyalash masalalari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlar fenomeni. Islohotlarni ro'yobga chiqarish yo'lida yoshlarda yuksak mas'uliyat, qat'iy hayotiy pozitsiyaning shakllanishi. Bunyodkorona tashabbuslarning xalqaro e'tirofi. BMT Bosh Assambleyasi rezolyusiyasi va Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari.

**13-mavzu. Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tamal toshi**

O'zbekistonda Uchinchi Renessans boshlanishi uchun muhim shart-sharoitning yuzaga kelganligi. Renessans - jamiyatning ijtimoiy tarbiyada yuksak bosqichlarga chiqishi. Uchinchi Renessansni bunyod etishda murabbiy va tarbiyachilarning o'rni. Shaxs omiliga bo'lgan e'tiborning ortishi. Mehnatning yuksak darajada qadrlanishi.

Jamiyat hayotida ma'naviy-ma'rifiy sohaning ustuvorligi, inson qadrining ulug'lanishi.

Yangi O'zbekistonda o'qituvchi va murabbiylarga e'tibor. Bugungi kunda o'qituvchi va tarbiyachilar oldida qo'yilgan mas'uliyat.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. "Ma'naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari" kursining maqsad va vazifalari.
2. Ma'naviy tarbiya to'g'risidagi ilk tasavvurlar, qarashlar va ta'limotlar.

Сканировано с CamScanner

3. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ma'naviy tarbiya masalalari
4. Markaziy Osiyoda tasavvuf, uning tarbiyaviy jihatlari
5. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat, ta'lim-tarbiya masalalari
6. Alisher Navoiy shaxsiyati va uning ilmiy-badiiy merosida tarbiya masalasining ustuvorligi
7. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar merosida tarbiyaga oid qarashlar
8. Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning tarbiyaga ta'siri
9. Turkistonda jadidchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari
10. Mustabid tuzum davri o'zbek ziyolilari asarlarida milliy-ma'naviy tarbiya masalalari
11. O'zbekiston mustaqilligi va ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv
12. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari
13. Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tamal toshi

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruhiy o'quv loyihasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbaalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:**

1. Ma'naviy tarbiya to'g'risidagi ilk tasavvurlar, qarashlar va ta'limotlar.
2. Qadimgi Sharq manbalarida ma'naviy tarbiya masalasi.
3. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ma'naviy tarbiya masalalari.
4. Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi va ijtimoiy-ma'naviy tarbiyadagi o'zgarishlar.
5. Markaziy Osiyoda tasavvuf, uning tarbiyaviy jihatlari.
6. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat, ta'lim-tarbiya masalalari.
7. "Temuriy malikalar, ularning shu davr ijtimoiy tarbiyasida tutgan o'rni (Saroymulkxonim, Gavharshodbegim va hk.).
8. Alisher Navoiy shaxsiyati va uning ilmiy-badiiy merosida tarbiya masalasining ustuvorligi.
9. Xamsanavislik va tarbiya.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar merosida tarbiyaga oid qarashlar.
11. "Boburnoma", uning tarbiyaviy ahamiyati.
12. Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning tarbiyaga ta'siri.
13. Xiva xonligida madaniy-ma'naviy uyg'onish: Maxtumquli, Munis, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy.
14. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiya masalasining yoritilishi.
15. Mustabid tuzum davri o'zbek ziyolilari asarlarida milliy-ma'naviy tarbiya an'analarini asrash uchun kurash g'oyasi.
16. O'zbekiston mustaqilligi va ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv.
17. Davlat ramzlari, ularning yoshlarda milliy g'ururni shakllantirishdagi o'rni.
18. Mustaqillik davri ijodkorlari asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya targ'iboti (Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Muhammad Yusuf).
19. Uchinchi Renessansni bunyod etishda murabbiy va tarbiyachilarning o'rni.
20. Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tamal toshi.

3.

**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

Fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning asosiy maqsad va vazifalari, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni haqida **tasavvur va bilimga;**
- milliy g'oya va ma'naviyatga oid manbalarni ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilishning pedagogik asoslari, O'zbekistonda ma'naviy-g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institutsional tizimining rivojlanish xususiyatlariga oid ma'lumotlarni saralash va qiyosiy tahlil qilish **ko'nikmasiga;**
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga erkin munosabat bildirish, bunyodkor yoki vayronkor g'oyalarning xalqlar va davlatlar taraqqiyotiga ta'sirini

| | |
|---|---|
| | mustaqil ravishda tahlil etish hamda ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga doir nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llay olish **malakasiga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hikoya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Olimov Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2015 yil.<br>2. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. – T.:Ma'naviyat, 2018 yil.<br>3. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.–T.: "INNOVATSIYA - ZIYO", 2019 yil.<br>4. Sobirova M, Zamonov Z, Niyozmatov A, Xo'jayev M. Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari. – Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti. –2022 yil.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2018.<br>6. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: "Adolat", 1998.<br>7. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son).<br>13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. *(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.*<br>14. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU,2017.<br>15. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: "O'zbekiston" NMIU,2018.<br>16. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.<br>17. Ma'naviyat yulduzlari. –T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.<br>18. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.<br>19. Tarbiya. Ensiklopediya. Tuzuvchi: M.N. Aminov. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.<br>20. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. – T.: Akademnashr, 2017.<br>21. Temur tuzuklari.– T.: O'zbekiston NMIU, 2019.<br>22. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.<br>23. Mirzayev T., Turdimov Sh. va bosq. O'zbek folklori. – T.: Tafakkur bostoni, 2020<br><br>**Axborot manbalari:**<br>1. http://www.lex.uz<br>2. http://www.senat.uz<br>3. http://www.gov.uz<br>4. http://www.mtdp.uz<br>7. http://www.parliament.uz<br>8. http://www. ziyonet.uz |
| 7. | Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>Sobirova M.A. – TDPU, "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.<br>Xo'jayev M.O. – TDPU, "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" dotsenti v.b. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Sh.Tursunova – Urganch davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)<br>I.S.Raximova -Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 200-sonli ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari |

Ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi
kafedrasi mudiri [signature] X.Tuxtaniyozov

Сканировано с CamScanner